

## YANGI O'ZBEKISTON: YANGILANISH VA TARAQQIYOT OMILLARI

**Kenjayeva Sevinch Shamsiddin qizi**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti  
Milliy g'oya manaviyat asoslari va huquq talimi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

**Nigmanova Umida Bahramovna**

Ilmiy rahbar:

Nizomiy nomidagi TDPU Ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi dotsenti,  
Pedagogika fanlari falsafa doktori

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ilgari surilgan inson qadri va uni ulug'lash borasidagi islohotlar, shuningdek, xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlarini yo'lga qo'yish hamda advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish borasida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston, taraqqiyot strategiyasi, xalq qabulxonalar, advokatura instituti, BMT, barqaror rivojlanish maqsadlari.

Barchamizga ma'lumki, har bir davrda barcha rivojlangan davlat va jamiyatlar o'zlarini uchun muhim bo'lgan yo'nalishlarda ma'lum bir maqsadlarga eltuvchi o'z strategiyani ishlab chiqadilar. Misol tariqasida, dunyoning rivojlangan davlatlaridan biri bo'lgan Germaniyaning ham o'z taraqqiyot strategiyasiga ega ekanligini ko'rsatishimiz mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2015 yilda 2030 yil kun tartibini qabul qilib, 17 ta Global Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDG)ni e'lon qilgan bir paytda, Germaniya 13 yil oldin ilgari surgan Milliy barqaror rivojlanish strategiyasiga ega edi. Germaniyaning ushbu strategiyasi 2018-yilda qayta yangilandi.

BMT va uning O'zbekistondagi sheriklari "Barqaror rivojlanish maqsadlari"ga erishish ustida ish olib bormoqda: ular O'zbekiston va butun dunyo aholisi duch kelayotgan asosiy muammolarni hal etishga qaratilgan 17 ta o'zaro bog'liq va ulkan maqsaddan iborat. O'zbekiston 2030-yilgacha bo'lgan davrdagi global kun tartibida qo'yilgan vazifalarni bajarish va "Barqaror rivojlanish maqsadlari" sohasidagi 16 ta milliy maqsadga erishish

uchun ko‘plab manfaatdor tomonlar ishtirokidagi sheriklikka keng qamrovliyondashuvga sodiq ekanini tasdiqladi.

Shu jumladan, O‘zbekiston ham bundan besh yil oldin o‘z rivojlanish tarixida yangi bir davrga qadam qo‘ydi. Ushbu 2017 – 2021-yillarga mo‘ljallangan milily harakatlar strategiyasi BRMni amalga oshirishda dasturilamal bo‘lib xizmat qildi. O‘tgan davr mobaynida ushbu Strategiya asosida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Quvonarlisi shundaki, qisqa vaqt ichida Harakatlar strategiyasida ko‘zlangan maqsad va vazifalarga tahlil va raqamlar asosida emas, O‘zbekistonning har bir fuqarosi o‘z turmush tarzida his qilgan o‘zgarishlar orqali to‘laqonli erishildi.

Ayni damda ushbu harakatlar strategiyasi doirasida boshlangan islohotlar izchillik bilan davom ettirilmoqda. Mamlakatimizda 2021 yili bo‘lib o‘tgan Prezident saylovi davomida davlatimiz rahbarining “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli yangi kitobi birinchi navbatda Tadbirkorlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi elektorati o‘rtasida keng muhokama qilindi. O‘z navbatida, saylovoldi uchrashuvlarida Taraqqiyot strategiyasi o‘ziga xos umumxalq muhokamasidan o‘tkazildi. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”, degan nom bejiz tanlanmagan. Bu nom avvalo mazkur Taraqqiyot strategiyasi – 2017 yil fevralida tasdiqlangan va keyingi besh yil ichida hayotga izchil tatbiq etilgan Harakatlar strategiyasining yangi bosqichdagi mantiqiy davomi bo‘lib, bugungi global o‘zgarishlar, aholi turmush tarzi, hayot talabi va qadriyatlarimizdan kelib chiqqan holda, yettita yo‘nalishda belgilab olindi. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili ilgari surilgan.

Jumladan, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining birinchi yo‘nalishi - erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, inson qadr-qimmati va uning qonuniy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarni yangi pog‘onaga ko‘tarish deb nomlanib, ushbu yo‘nalish doirasida fuqarolarning o‘z mahallasi hayotidagi ishtirokini kuchaytirish hamda davlat organlari va mahallalar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni yo‘lga qo‘yish, Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlarining mahallalardagi muammolarni hal qilishdagi rolini oshirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining turmush darajasini oshirish bo‘yicha doimiy komissiyalar faoliyatini kuchaytirish, shuningdek, Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish sohasida davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirishga doir chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Zero, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining birinchi yo‘nalishida belgilab berilgan vazifalarning hayotimizga tatbiq etilishi orqali millati, tili va dinidan qat’i nazar, mamlakatimizda yashayotgan har bir fuqaroning, butun xalqimizning farovonligini ta’minlashga xizmat qiladigan “Yangi O‘zbekiston – xalqchil va insonparvar davlat” g‘oyasini amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilib, “Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyil to‘laqonli ro‘yobga chiqariladi.

Xususan, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi loyihasining 11-maqсадида “Xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlarini takomillashtirish” muhim vazifa etib belgilanmoqda. Xalq bilan ochiq muloqotning mexanizmlarini yanada takomillashtirish, muhim qarorlarni jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda qabul qilish amaliyotini kengaytirish, davlat organlariga kelib tushgan murojaatlarni ko‘rib chiqish jarayonini raqamlashtirish, murojaatlarni tezkor va sifatli ko‘rib chiqilishini ta’minlash ko‘zda tutilmoqda.

Xalq bilan bevosita muloqot qilish, yurtdoshlarimizning dardu tashvishlari, muammolarini ijobiy hal etish bo‘yicha mutlaqo yangi demokratik tizim – Xalq qabulxonalari o‘tgan besh yilda faoliyat yuritib kelmoqda va o‘zini oqladi.

Taraqqiyot strategiyasi loyihasining 19-maqsadi – advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, aholi va tadbirkorlik sub’ektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo‘lgan talabini to‘liq qondirishdan iborat. Bunda:

- advokatura institutini to‘laqonli o‘z-o‘zini boshqarish tizimiga o‘tkazish, Advokatlar palatasi boshqaruв organlarining advokatlar hamjamiyati oldidagi hisobdorligini kuchaytirish, tizimga yosh malakali kadrlarni jalb qilish;

- advokatlar malakasini oshirish tizimining zamonaviy va samarali mexanizmlari va institutsional asoslarini shakllantirish;

- advokatlik faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish orqali ortiqcha byurokratiya va qog‘ozbozlikka chek qo‘yish, sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari bilan elektron hujjatlar almashinuvini yo‘lga qo‘yish;

- bepul huquqiy yordam ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirish, notariat va fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlarining xizmatlaridan ovoragarchiliksiz, shu jumladan masofadan turib va “yagona darcha” tamoyili asosida foydalanishni ta’minlash ko‘zda tutilmoqda.

Yana bir muhim jihat: Loyihaning 90-maqсадида BMT органлари ва институтлари, глобал ва мінтақавиыт іктисоди, мөліявіт ва гуманитар ташкілтлардагы фәoliyatni күчayтириш haqida со'з боради. Ya'ni, O'zbekistonni BMT tuzilmalari orqali dunyo hamjamiatiga keng tanitish; O'zbekiston rahbariyatining BMT doirasidagi tashabbuslarini amalgam oshirishni ta'minlash; BMT va uning muassasalari bilan iktisodiy-moliaviy va konsultativ hamkorlikni rivojlantirish bunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari bilan madaniy-gumanitar hamkorlikni jadallashtirish; BMTning "Inson huquqlari yo'lida harakatga da'vat" tashabbusini ilgari surish uchun barcha sheriklar bilan yaqin hamkorlikni davom ettirish istiqbollari ko'rsatib berilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi loyihasi negizida bir qancha yangi dasturlar, yangi konsepsiylar, loyihalar, yangi qonun hujjatlari qabul qilinishi nazarda tutilgan va bugungi kunda bu ishlar o'z samarasini bermoqda. Bu bilan mamlakatimizning siyosiy, iktisodiy, jtimoiy, madaniy va ekologik rivojlanishining keyingi bosqichida amalgam oshiriladigan islohotlar keng qamrab olinmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

- 1.Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliv bahodir. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2018.
- 2.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2021. – 267 b.
- 3.Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2017.-592 b. I-Jild. 146-b
- 4.Jumaniyozov X.S. Globallashuv asoslari – Toshkent: LESSON PRESS nashriyoti- 2023 y. 121-b
- 5.Jumaniyozov X.S., Nigmanova U.B., Rasulova A.M. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent- 2022 y
- 6.Nigmanova U.B. Globallashuv sharoitida milliy-madaniy meros va qadriyatlarni saqlash zaruriyati. Mug'allim ham uzlusiz bilimlendiru 2023y. 5/3-son 388-bet
- 7.Milliy yuksalish strategiyasi fanidan o'quv-uslubiy majmua Toshkent-2023. U.B.Nigmanova, A.M.Rasulova,
- 8.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljalangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni